

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO ADABIY MUHITI VA UNING YETUK VAKILLARI IJODI

Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Buxoro xalqaro universitet o'qituvchisi
onatilichoriyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhitida yashab ijod qilgan bir qancha shoirlar ijodi tahlil qilinadi. Bulardan, Mullo Abdumajid Muztarib, Abdulloboqiyxo'ja Nozim (Bebok), Shamsiddin Muhammad Shohin, Muhammad Siddiq Hayrat hamda Sadriddin Ayniy ijodining badiiy-g'oyaviy xususiyatlari ochib beriladi. Ijodkorlar asarlarida ishqiy lirika, ijtimoiy adolatsizlik, hijron, kimsasizlik va zamona nosozliklariga munosabat masalalari tahlil qilinadi. Buxoro adabiy muhiti o'zbek va tojik adabiyotining rivojida muhim bosqich bo'lgani ilmiy asosda muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Buxoro adabiy muhiti, XIX asr adabiyoti, g'azal, musaddas, ruboiy, ishqiy lirika, ijtimoiy motivlar, Muztarib, Bebok, Shohin, Hayrat, Sadriddin Ayniy.

Аннотация. В статье анализируется творчество поэтов, живших и творивших в литературной среде Бухары во второй половине XIX – начале XX века. В частности, рассматриваются идейно-художественные особенности произведений Мулло Абдумажид Музтариба, Абдуллобойхожа Нозима (Бебока), Шамсиддина Мухаммада Шохина, Мухаммада Сиддика Хайрата и Садриддина Айни. В их произведениях находят отражение темы любовной лирики, социальной несправедливости, разлуки, одиночества и кризисных явлений эпохи. В результате исследования научно обосновывается значительная роль бухарской литературной среды в развитии узбекской и таджикской литературы.

Ключевые слова: литературная среда Бухары, литература XIX века, газель, мусаддас, рубаи, любовная лирика, социальные мотивы, Музтариф, Бебок, Шохин, Хайрат, Садриддин Айни.

Abstract. This article analyzes the works of poets who lived and created within the literary environment of Bukhara during the second half of the nineteenth and the early twentieth centuries. In particular, the ideological and artistic features of the works by Mullo Abdumajid Muztarib, Abdulloboqiykhoja Nozim (Bebok), Shamsiddin Muhammad Shohin, Muhammad Siddiq Hayrat, and Sadriddin Ayni are examined. Their literary heritage reflects themes of love lyrics, social injustice, separation, loneliness, and the imperfections of the era. The study substantiates, on a scholarly basis, that the literary environment of Bukhara constituted an important stage in the development of Uzbek and Tajik literature.

Keywords: Bukhara literary environment, 19th-century literature, ghazal, musaddas, rubai, love lyrics, social motifs, Muztarib, Bebok, Shohin, Hayrat, Sadriddin Ayni.

Kirish. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududi nafaqat siyosiy-iqtisodiy, balki adabiy-madaniy jihatdan ham muhim markazlardan biri bo'lgan. Ushbu davr adabiyoti an'anaviy mumtoz she'riyat bilan yangi ijtimoiy fikrlar tutashgan murakkab bosqich sifatida e'tiborlidir. Buxoro shoirlari o'z asarlarida ishqiy tuyg'ular bilan bir qatorda zamonaning adolatsizligi, ilm ahlining xorlanishi, inson qadrining poymol etilishi kabi dolzarb masalalarni ham badiiy ifodalaganlar.

Adabiyotlar tahlili. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Buxoro adabiy muhitini o'rganishda bir qator ilmiy manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, N.Karimovning "XIX asr o'zbek adabiyoti tarixi" asarida davr adabiyotining umumiy

taraqqiyot bosqichlari yoritilgan bo'lsa, A.Hayitmetov tadqiqotlarida mumtoz adabiyot an'analari va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. S.Vohidov hamda B.Qosimov asarlarida esa Buxoro adabiy muhiti vakillari va ularning ijodi haqida muhim ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, Sadridin Ayniyning tanlangan asarlari ushbu davr adabiy jarayonini o'rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tahliliy hamda adabiy-tanqidiy metodlardan foydalanildi. Shoirlar ijodi ularning asarlari, devonlari hamda mavjud ilmiy adabiyotlar asosida o'rganilib, badiiy-g'oyaviy xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, davr adabiy muhitining o'ziga xos jihatlarini aniqlashda qiyosiy yondashuv qo'llanildi.

Tahlillar va natijalar. XIX asr ikkinchi yarmida Buxoroda yashab ijod etgan shoirlardan yana biri Mullo Abdumajid Muhtarib. U Buxoroda tug'ilib, shu yerda o'qidi. Bir muddat amir Muzaffar, keyin amir Abdulahad saroylarida xizmat qilgan va go'zal g'azallar yaratgan:

Jonfidoying menmanu malhami jonsan o'zgaga,
Qochasan mendan yiroq oromravonsan o'zgaga.
Maysalikda hosilim erding meni bug'doyrang,
Men quruq qoldim bugun noni taftonsan o'zgaga.
Parvarish qildim qalamcha singari dil qonidan,
Barg yozar payting yetib, gulu gulandonsan o'zgaga.
G'o'ralik chog'ing avaylab, qancha zahmat chekdimu
Pashshalar shirangiz shimdi, xayr - ehsonsan o'zgaga
Misli sarxil mevaga liq to'la la'lisan, vale,
Shuncha fayzing mendanu zebi do'konsan o'zgaga
Jonin kaftimda tutub, men visoling izlasam,
Ko'z tikarsan bo'lgani yengu giribonsan o'zgaga.
Men latif she'rimda belda sochlaring yod aylabon,
To'lg'anarman, sochni qilding band pechonsan o'zgaga.
Xushkalom she'r muxlisi garchi bisyor Muhtarib,
Ammo sen nutqu bayonda noayonsan o'zgaga.

Muhtarib an'ana zamirida o'ziga xos yangilik yarata olgan shoir sifatida zamonasida peshqadamlik qildi. Ushbu g'azal Ogahiyning "Ustina" radifli g'azaliga ergashish asnosida bitilganligi seziladi. Shoir bog'bon qiyofasida "qalamcha" obrazi orqali yangi nihol ko'kartirmoqchi, ya'ni o'zgacha ishq bilan ma'shuqani bahramand etmoqchi, biroq uning orzusi amalga oshmaydi. Ma'shuqa, ehtimolki, charxi bemuruvvat oshiqni qanchalik zahmat chekmasin, tashbehtar axtarmasin, betakalluflik bilan siylaydi.

A.Tamkinga zamondosh ijodkorlardan yana biri Abdulloboqiyxo'ja Nozim, ya'ni Bebok taxallusli shoirdir. U XIX asr boshlarida Ahmadxo'ja Mirakxo'ja oilasida tug'ilgan. Madrasa ta'limidan keyin mudarrislik bilan shug'ullangan. Bebok devonida g'azal, qit'a,

qasida, masnaviy kabi janr namunalari uchraydi. Shoirning hayoti ziddiyatlarga to'la bo'lib, bu uning ijodida ham namoyon bo'lgan.

Qildi ko'ksim dog', ko'zim qon, dilfigor kulfat meni,

Nega, yo rab, bu qadar ayladi xor kulfat meni.

Bodayi hasrat to'kildi to falakning komidan,

Ichgizor taryok misoli zahri mor kulfat meni.

Chekmasin hech kim meningdek bemurodlik jabrini,

Dog'laridan qildi siynam lolazor kufat meni.

Otashi g'ammi sug'orgay dardli dil mazrasini

Undirar siynamda gulmas, toza xor kulfat meni.

Ayni rohat bir dame gul rangini ko'rmoq esam,

G'unchaning dil dog'iga, qilgay duchor kulfat meni.

G'unchadek dil ta'miri qon dog'idan bo'ldi magar,

Loladek qonga botirgay har bahor kulfat meni.

Ayriliq o'tida jonim o'rtanur misli sipand,

Ol qulim, yo rabki, qildi beqaror kulfat meni,

Dardu dog'u zahmatu hasrat chekarman, garchi men,

Faxr etarman qildi deb bee'tibor kulfat meni.

Umr karvoni yukin bog'lar fano mulki tomon,

Qo'ymagay, yuk bog'lasa, dildan g'ubor kulfat meni.

Kimsasizlik dardida kuydi Bebok bus - butun

Bu hayotda ayladi, sham'i mozor kulfat meni.

Bebok umri davomida kimsasizlik, g'ariblik va qiyinchilikda umr kechirganligi haqida ushbu g'azal ma'lumot beradi.

Shu davrda yashab ijod qilgan Buxorolik yana bir iste'dodli shoir Shamsiddin Muhammad Shohin hisoblanadi. U 1866-yil Buxoroda tug'ilib, to umrining oxirigacha shu yerda qoldi. Shohin Buxoro madrasalarida tahsil oldi va shahar mahallalarining birida imomlik qildi. 1887-yildan amir Abdulahadning parvonachisiga mirzolik xizmatini bajardi va parvonachining qiziga uylandi.

Shoirning baxtli hayoti ko'p davom etmadi, rafiqasining vafoti shoir ruhiyatida, ijodida ezginlik, hijron, dil fig'onlari go'zal g'azallar, ruboiylar, masnaviylar ko'rinishida aks etdi. Uning "Layli va Majnun" masnaviysi rafiqasi xotirasiga bag'ishlab yozilgan. Shoiridan bizgacha 1 ta devoni, "Tuhfayi somiy", "Badoye' us-sanoye'" asarlari yetib kelgan. Shohin umrining oxirigacha amir xizmatida bo'lsa-da, qalban yolg'iz hayot kechirdi va o'pka kasalligidan vafot etdi.

Uning:

Qonli dil dardiga darmon yetmagay,

So'nggiga bu rohi hijron yetmagay.

Ohu nolamdan malaklar bo'ldi kar,

Ne uchun yorga bu afg'on yetmagay.

Yoki:

To oyoq yurgay, yurarman sen tomon,

To ko'zim ko'rgay, qararman sen tomon.

Qay kuni tolsa oyoq birla ko'zim,

O'ltirarman bergali yo'lingda jon – singari ruboiylari shoirning ichki iztiroblari sifatida ko'rinsa-da, aslida u zamonaning nosozligi, ilmning xorligi, nohaqlik va adolatsizliklardan, xalqning nochor ahvolidan iztirob chekadi:

Bu dahrda buncha ko'p fitnayu kin bo'lmasa,

Bu davrda hunar – ayb, xoru zabun bo'lmasa,

Ilmda zarardan o'zga biror yakun bo'lmasa,

Eshak odam sanalsa, odamga kun bo'lmasa,

Bir joy ketayki, boshim uzra gardun bo'lmasa,

Ammo netayki, o'zga joy men uchun bo'lmasa?.. – ushbu musaddasda shoirning katta qalb egasi ekanligi ko'rinadi.

Bu davr adabiyotining yana bir vakili Muhammad Siddiq Hayratdir. U 1876-yilda Buxoroning Aro'son guzarida tavvallud topgan. Otasi shu guzar masjidida muazzin bo'lgan. Hayrat yetti yoshida onasidan, o'n ikki yoshida otasidan ayrilgan, biroq turmush mashaqqatlariga qaramasdan o'qishini davom ettirgan. 1895-yilning oxirlarida Sadriddin Ayniy bilantanishgan va ular do'st bo'lib qolgan. U iqtisodiy hayotini yaxshilash maqsadida shu yili Ashurbek degan qorako'l teri bilan savdo qiladigan dallolning mirzasi bo'lib, ishga kiradi. Hayrat 1902-yili 26 yoshida Buxoroda sil kasalligidan vafot etadi. Hayratdan bizgacha 1 ta devon yetib kelgan. Shoirning devonida g'azal, qit'a, qasida, muxammas, musaddas, masnaviy va ruboiy kabi janrlar uchraydi. Hayrat ikki tilda: fors-tojik va turkiy tilda ijod qilgan.

Masalan:

Ey munisi dil, kecha sen kima mehmon bo'luvding?

Jon sensiz o'rtandi sen kima jonon bo'luvding?

Men ishqing mayidan mast, sen o'zgaga ulfat,

Dardmanding menu sen kima darmon bo'luvding?

Ag'yor suhbatiga g'arqsanu bir bor o'ylamaysan,

Aslida azaldan kima armon bo'luvding?

Olding qarorimniyu kimga berding orom,

O'ldim firoqing ichra, ayt, kima jon bo'luvding?

Ko'z yoshim aro suzdi aylokni qayig'i,

Ey ruhi ravon, kima lo'bati xandon bo'luvding?

Bir bor dilimdan olmading jabr tikonin,

Gul oraz ila kima sarvi guliston bo'luvding?

Xanjar qo'lida, bir mast kelar qatlingni istab,

Hayrat, qaraki kima zahmi paykon bo‘luvding?

Bu davr o‘zbek va tojik adabiyotining mashhur shoir va yozuvchilaridan yana biri Sadridin Ayniydir. Sadridin Ayniy ijodi an’anaviy adabiyotning va yangi namunadagi adabiyotining boshlanish davri bo‘ldi.

Sadridin Ayniy 1878-yili Buxoroning G‘ijduvon tumanidagi Sektare qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlab qishloq maktabida, so‘ngra Buxoro madrasalarida o‘qigan. Shoirning 15 jilddan iborat. U umrining oxirini Tojikistonda o‘tkazdi, qabri Dushanbe shahrida. Sadridin Ayniy serqirra ijodkor sifatida, ustozu olim sifatida ham shuhrat topdi. Shoir ijodidan ayrim namunalar buning isbotidir. Ijodkordan bizgacha “Qullar”, “Odina”, “Qori ishkamba” kabi nasriy asarlar va go‘zal g‘azallar yetib kelgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoroda shakllangan adabiy muhit o‘zbek va tojik adabiyotining taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Mullo Abdumajid Muhtarib ijodida an’anaga sodiqlik bilan birga obraz va tashbehlar orqali yangicha badiiy talqinlar yuzaga kelgan. Bebok she’riyatida kimsasizlik va hayotiy iztiroblar yetakchi o‘rin tutsa, Shohin ijodida shaxsiy fojia bilan ijtimoiy dardlar uyg‘unlashgan. Muhammad Siddiq Hayrat asarlarida esa ishqiy lirika bilan bir qatorda ijtimoiy ruh kuchli seziladi. Sadridin Ayniy esa an’anaviy adabiyotdan yangi davr adabiyotiga o‘tish jarayonining yetakchi vakili sifatida adabiy tafakkur taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan.

Umuman, mazkur davr Buxoro adabiy muhiti ijodkorlari asarlari o‘zining g‘oyaviy chuqurligi, badiiy yetukligi va ijtimoiy ahamiyati bilan bugungi adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vohidov S. Buxoriylar bo‘stoni. – Buxoro: Yozuvchi, 1998. – 139–140-betlar.
2. Ayniy S. Tanlangan asarlar (15 jildlik). – Dushanbe: Irfon, 1970–1978.
3. Karimov N. XIX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 1988.
4. Hayitmetov A. O‘zbek mumtoz adabiyoti masalalari. – Toshkent: Fan, 1991.
5. Qosimov B. Buxoro adabiy muhiti va ijodkorlar. – Toshkent: Akademnashr, 2005.